

PROKURATURA TIZIMINING HUQUQIY MAQOMI

Eshonqulov Asror Bozor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy -odil sudlov fakulteti 2- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada prokuratura tizimining huquqiy maqomi va uning vakolatlari tahlil qilinadi. Prokuratura, davlat huquqiy tizimida muhim o'rin tutadi va jinoiy adolatni ta'minlash, davlat va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish bilan shug'ullanadi. O'zbekistonda prokuratura tizimi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Prokuratura to'g'risidagi" qonunga asoslanadi va mustaqil davlat organi sifatida faoliyat yuritadi. Maqolada prokuraturaning vakolatlari, uning funksiyalari va davlat tizimidagi o'rni, shuningdek, prokuraturaning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda tizimning jamiyatdagi o'rni ko'rsatiladi. Ushbu maqola, prokuraturaning jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Prokuratura tizimi va Huquqiy maqom, Vakolatlari, Tergov, Normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekistonda prokuratura, Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, Sud tizimi, Huquqiy nazorat.

"LEGAL STATUS OF THE PROSECUTOR'S OFFICE"

Abstract: This article analyzes the legal status of the prosecutorial system and its powers. The prosecutor's office holds a pivotal role within the state legal framework, tasked with ensuring criminal justice, safeguarding the rights and freedoms of both the state and its citizens, and identifying and addressing violations of the law. In Uzbekistan, the prosecutorial system is founded on the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law "On the Prosecutor's Office," and operates as an independent state body. The article examines the office's powers, its functions and position within the state apparatus, as well as the normative-legal acts that regulate its activities and its role in society. This study aims to underscore the importance of the prosecutor's office in upholding the rule of law.

Keywords: Prosecutorial system and legal status, Powers, Investigation, Normative-legal acts, Prosecutor's office in Uzbekistan, Protection of citizens' rights, Judicial system, Legal oversight.

ПРАВОВОЙ СТАТУС СИСТЕМЫ ПРОКУРАТУРЫ.

Аннотация: В данной статье анализируется правовой статус прокуратуры и её полномочия. Прокуратура занимает важное место в государственно-





правовой системе, занимается обеспечением уголовной справедливости, защитой прав и свобод граждан и государства, а также выявлением и устранением правонарушений. Система прокуратуры Узбекистана основывается на Конституции Республики Узбекистан и законе «О прокуратуре» и действует как независимый государственный орган. В статье рассматриваются полномочия прокуратуры, её функции и роль в государственной системе, а также нормативно-правовые акты, регулирующие её деятельность, и место системы в обществе. Цель статьи — освещать важность прокуратуры в обеспечении верховенства закона в обществе.

Ключевые слова: Система прокуратуры и правовой статус, полномочия, расследование, нормативно-правовые акты, прокуратура в Узбекистане, защита прав граждан, судебная система, правовой контроль.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida prokuratura muhim o'rin tutadi. Ushbu organ davlat manfaatlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Prokuraturaning asosiy vazifasi jinoyatlarni tergov qilish, sudlarga jinoiy ishlarni taqdim etish va huquqiy nazoratni amalga oshirishdan iborat. Bu maqolada prokuratura tizimining huquqiy maqomi, uning vakolatlari va funksiyalari, shuningdek, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

Prokuratura Tizimining Huquqiy Maqomi.

Prokuratura tizimi — O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi barcha prokuratura organlari majmuasidir. Bu tizim vertikal tuzilishga ega bo'lib, quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi,
Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi,
Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari,
Tuman va shahar prokuraturalari,

Harbiy prokuratura va ixtisoslashgan prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, prokuratura – mustaqil davlat organidir, u davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoiy jarayonlarni nazorat qilish vazifasini bajaradi. Prokuraturaning huquqiy maqomi, uning boshqa davlat organlaridan mustaqil bo'lishini ta'minlaydi. Bosh prokuror, prokuraturaning yuqori organi sifatida, tizimni boshqaradi va uning faoliyatini nazorat qiladi. Prokuraturaning mustaqilligi, qonuniylikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega, chunki bu uning faoliyatiga hech qanday tashqi bosim ko'rsatmasligini ta'minlaydi.



Prokuraturaning Vakolatlari.

Prokuratura davlat organi bo'lib, u qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishini nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasida prokuratura tizimi Konstitutsiyaviy asosga ega bo'lib, uning asosiy vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Prokuraturaning vakolatlari davlatning huquqiy tizimida ajralmas o'rn tutadi. Jinoiy ishlarni olib borish va nazorat qilish: Prokuratura jinoiy tergovlarni olib boradi, jinoyatlarni aniqlash va jinoyatchilarni jazolash uchun tegishli choralar ko'radi. Shu bilan birga, sud jarayonlarida davlat manfaatlarini himoya qiladi va jinoiy ishlarni sudga taqdim etadi.

Tergovni nazorat qilish: Prokuratura tergov organlarining faoliyatini nazorat qiladi. Agar tergov organlari qonunlarga amal qilmasa yoki tergov jarayonlari to'g'ri o'tkazilmasa, prokuratura ularni tuzatish uchun tegishli chora-tadbirlar ko'radi.

Qonunbuzarliklarni aniqlash: Prokuratura, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun nazorat olib boradi. Bu faoliyat, davlat boshqaruvi va xususiy sektorda qonun ustuvorligini ta'minlashga yordam beradi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish: Prokuratura, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ularning erkinliklarini cheklovchi har qanday holatni bartaraf etish uchun qonun doirasida faoliyat yuritadi. Bu, ayniqsa, davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa davlat organlarini nazorat qilish: Prokuratura, boshqa davlat organlari faoliyatini nazorat qilish va ularning ishlarini qonuniyligini ta'minlash uchun ko'p hollarda ular bilan hamkorlik qiladi. Bu nazorat organlarining xatoliksiz va samarali ishlashiga yordam beradi.

Prokuraturaning Faoliyatini Tartibga Soluvchi Normativ-Huquqiy Hujjatlar.

Prokuraturaning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risidagi" qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunda prokuraturaning tuzilishi, uning huquqiy maqomi, vakolatlari, funksiyalari va nazorat qilish huquqlari aniq belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi, va Jinoiy Jazolarni Ijro Etish Kodeksi kabi me'yoriy hujjatlar prokuraturaning faoliyatini tartibga soladi. Ushbu hujjatlar orqali prokuraturaning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'rni belgilangan. "Prokuratura to'g'risidagi" asosiy qonun prokuratura tizimining tuzilmasi, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, prokurorlarning maqomi va javobgarligini tartibga soladi. Qonunda prokuraturaning jinoyatlarni tergov qilish, davlat ayblovini qo'llash, qonuniylikni ta'minlashdagi ishtiroki aniq belgilangan.

Prokuraturaning Jamiyatlardagi O'rni

Prokuratura tizimi davlatning huquqiy tuzilmasida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning asosiy vazifalari fuqarolar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan iborat.





Prokuratura davlat hokimiyatini muhim institutlaridan biri hisoblanadi U jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda katta rol o'ynaydi. Uning faoliyati qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Prokuratura barcha idora, tashkilot, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiladi. Bu jamiyatda adolatni, barqarorlikni va tartib-intizomning asosiy kafolatidir.

Prokuratura huquqiy ma'daniyatni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Prokuratura organlari aholiga qonunchilik normalarini tushuntirish, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida profilaktik tadbirlar o'tkazadi. Bu esa jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Prokuratura organlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda shtatlari sonini ko'paytirish to'g'risida"gi 1993-yil 19-sentabrdagi 468-sonli qarori (hozir kuchini yo'qotgan);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston

Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to'g'risida"gi 1999-yil 30-martdagi PF-2277-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi

O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida 2001-yil 29-avgustdagi 257-II-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 28-noyabrdagi 415-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 2005-yil 6-maydagi 29-I-sonli qarori;

Ushbu hujjatlar prokuratura organlarining huquqiy maqomi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston

Respublikasi Prokuraturasi organlari to'g'risida"gi 1992-yil 8-yanvardagi PF-313-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasida Sobiq Ittifoq qaramog'idagi O'zbekiston SSR prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi aylantirilgan. Shu orqali prokuratura organlari huquqiy maqomi shakllantirila boshlangan. Ammo u vaqtda hali kamchiliklar ancha bo'lib, bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar talab etilgan. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi prokuratura organlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlab



berdi. Xususan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Konstitutsiyamizning XXV bobi, ya'ni 143-, 144-, 145- va 146- moddalarida prokuratura organlarining huquqiy maqomini mustahkamlab bergan. Shuni ta'kidlash lozimki, bosh qomusimizga hozirgi kunda

15 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lsa ham, 1992-yildan beri prokuratura qismi o'zgarishlarsiz kelayotgan qismlardan bo'lib turibdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan

tayinlanadi. Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati — besh yil.

Tergov bu jinoyat sodir etilganligi haqidagi dalillarni to'plash, tahlil qilish va jinoyatni fosh etishga qaratilgan jarayondir. Prokuratura tergov organlarining qonuniyligini nazorat qiladi va ayrim hollarda o'zi ham bevosita tergov yuritadi. Masalan, harbiy prokuratura, korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi ishlar.

Sud tizimi.

Prokuratura va sud tizimi o'zaro bog'liq. Prokuror sudda: Davlat ayblovini ilgari suradi, Sud qarorlarining qonuniyligini nazorat qiladi, Noqonuniy qarorlar ustidan protest kiritish huquqiga ega. Sud va prokuratura o'rtasidagi bu hamkorlik jinoyat ishlarining adolatli ko'rib chiqilishiga xizmat qiladi.

Huquqiy nazorat.

Prokuratura barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunlarga rioya etishini tekshiradi. Bu nazorat quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

Nazorat tekshiruvlari,
Taqdimnoma, ogohlantirish, protest kiritish,
Jinoyat ishi qo'zg'atish,
Sudga da'vo kiritish.
Xulosa va takliflar

Prokuratura tizimi O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida ajralmas va muhim o'rin egallaydi. Uning vakolatlari jinoiy adolatni ta'minlash, davlat va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini saqlashda beqiyos ahamiyatga ega.





Prokuraturaning samarali ishlashi jamiyatdagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Prokuraturaning huquqiy maqomi va vakolatlari, davlatning huquqiy tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun uning faoliyatini yanada takomillashtirish va kuchaytirish zarurati mavjud.

Prokuraturaning mustaqilligini va qonunlarni kuchaytirish kerak, Ayniqsa uning xolisligini ta'minlash uchun. Prokuratura faoliyatining shaffofligini oshirish va xalq bilan muloqotni yaxshilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yil 30-aprel).
2. O'zbekiston Respublikasining Prokuraturasi to'g'risidagi qonun. (1992-yil 9-dekabr).
3. Kamolov, I. (2017). "Prokuratura tizimi va uning funksiyalari". Toshkent Davlat Yuridik Universiteti nashriyoti.
4. Nuriyev, S. (2015). "Huquqiy davlat va prokuraturaning o'rni". Jurnal of Legal Studies, 45-57.
5. G'ulomov, A. (2018). "Prokuratura tizimi va uning huquqiy maqomi: muammolar va yechimlar". Huquqshunoslik va Innovatsion Rivojlanish, 12-23.
6. Djuraboev, R. (2019). "Prokuratura tizimi va huquqiy madaniyat". Toshkent: O'zbekiston Yuridik Akademiyasi nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi" Qonuni.

